

HARBIY KADRLAR TA'LIM TIZIMINING RETROSPEKTIV TAHLILI

*QK harbiy xizmatchisi
Tavakkalov Akramjon Ahmadjonovich*

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy kadrlar ta'lif tizimining rivojlanish davrlari, o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, bu tizimdagi qiyinchiliklar va yechimlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: harbiy kadr, tizim, bosqich, davr, jangchi, qo'shin, armiya, bilim, ixtisos, qism, taktika.

Harbiy kadrlarni tayyorlashda ta'lif tizimi o'z rivojlanish davriga ega, ushbu tizim bir nechta davriylikni qamrab oladi. Harbiy ta'limning paydo bo'lishi va rivojlanishi bevosita harbiy san'at taraqqiyoti bilan izchil bog'liqdir.

Harbiy ta'lif ya'ni harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi sifatida XVII asrning oxirlari va XVIII asr boshlarida Yevropa davlatlarda shakllangan va ular tarkibida bir qator ixtisoslashtirilgan harbiy bilim yurtlari tuzilgan. Harbiy soha rivoji natijasida qo'shnlardagi harbiy texnik ta'minotdagi o'zgarishlar turli soha mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni oshirdi.¹

Harbiy kadrlarini o'qitish tizimi bir necha vaqt o'tishi bilan ma'lum darajada umumlashtirib bir qancha bosqichlarda ifodalash mumkin:

Birinchi bosqichda qadim zamonlardan XIX asrgacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga olib, ilk o'rta asr millodning V-VI asrlarda harbiy qo'shin san'atida og'ir qurollangan suvoriyalar jang taktikasiga oid mahoratlari shakllana boshladi, harbiy qo'shin, qurol-yarog', o'z vataniga sadoqat bilan xizmat qiladigan yurt xavfsizligini saqlash, qolaversa, mamlakatning mol-mulklarining daxlsizligi va karvonlarning bexatarligini ta'minlashga jasur jangchilar (chokarlar) saralanib, jangovar harbiy

¹ Xasanbayev X.X. Mudofaa sohasida harbiy pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish omillari: Pedag. fan. b-cha falsa. d-ri (PhD) diss. ... avtoref. –Chirchiq 2023. –26 b

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

qismlar yuzaga kelgan² va jang taktikasi juda qadimdan shakllanib, asrlar davomida takomillashib kelgan.

XIII-XIV asrlarda Sohibqiron Amir Temur davrida sultanat havfsizligini ta'minlash, uni himoya qilish, janglarda g'alaba qozonish uchun jang maydonida qahramonlik ko'rsata olgan, jasur harbiylar tayyorlangan va muntazam janglarda faol ishtirok etish bilan yuqori martabalarga erishganlar.

Bulardan ma'lumki Amir Temur qo'shinchalarni ishonchli boshqarilishi hamda jangovar vazifalarni samarali bajarilishi uchun qo'mondonlik tarkibiga o'zining farmoyishlari bilan tayinlovlari amalga oshirib, jang yakuniy tajribalar asosida keyingi yurushlarni rejalashtirish uchun yig'inlar o'tkazib, maslahatchilarini hamda qo'mondonlik tarkibi fikr mulohozalarini eshitgan holda qo'shin shahsiy tarkibining tayyorgarliklari uchun yangi ko'rsatmalar bilan o'z qo'shin jangchilarini jangovar tayyorgarlik ko'nikmalari shakllantirib boravergan.

Ikkinci bosqichda XX asrdan XXI asrda Sovet respublikasining harbiy kadrlarni tayyorlash hamda o'qitish tizimi.

Bu davrda yosh Sovet respublikasining Qizil gvardiya armiya Qurolli kuchlarida harbiy kadrlar yetarlicha butlanmagan hamda harbiy kadrlarni o'qitish tizimini tartibga solinmagan. Shu munosabat bilan Xalq Komissarligining 1918 yil 14 fevraldagagi 130 buyrug'i³ bilan Sovet harbiy kadrlarni tayyorlash maktablarini qurish bo'yicha tizimli ishlar boshlanib, Petrogradda oltita, Moskvada to'rtta va Tverning Oranienbaum shahrida bitta harbiy muktab ochildi. Harbiy muktab kurslarining maqsadi - umumiyligi ta'lim va umumiyligi harbiy bilimlarni berish bo'lib, maktabga o'rta ta'lim ma'lumotiga ega bo'lgan yoshlar qabul qilingan hamda piyoda va pulemyotchilar - 4 oylik, otliqlar uchun - 6 oylik va texniklar uchun 12 oylik o'qitish muddatlar belgilangan va bitiruvchilar Qizil gvardiyada tarkibida o'z faoliyatlarini amalga oshirganlar.

1941- yil oxirlarida Qizil armiyaning komandirlar tarkibini deyarli 73%

² Джалилов А. Войско и оружие согдийцев накануне и в период борьбы с арабским нашествием // ИООН АН Тадж . ССР, Вып 8. 1956. С. 81-85; Беленицкий А.М. О работе панджикенского отряда ТАЭ в 1959. // АРТ, 7, 1961. С. 88-90.

³ А. И. Каменев История подготовки офицерских кадров в СССР (1917 - 1984 гг.). (Новосибирск: НВВПУ, 1991. - 6 с.)

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

dushman tomonidan yo‘q qilinganligi inobatga olinib, 1942- yilga kelib 16 ta piyoda askarlar, 8 ta pulemyot-minomyotchi harbiy bilim yurtlari tashkil qilingan, 10 ta harbiy okrug va 2 ta zaxira frontlarida vzvod komandirlarini tayyorlash kurslari ochilgan, 1941 - 1945 yillar davomida Sovet ittifoqi tarkibidagi 31 ta oliy harbiy o‘quv yurtlari, 220 ta bilim yurtlari va 200 dan ortiq turli kurslar Qizil armiya tarkibi uchun 2 milliondan ortiq ofitser kadrlar yetkazib bergenlar⁴.

Ikkinci jahon urushining dastlabki yillarda Sovet Ittifoqining ofitser harbiy kadrlarni tayyorlashdagi o‘quv dasturlariga yetarlicha o‘zgartirish kiritilmaganligi, o‘qituvchilar tarkibining yetarli malakalarga ega bo‘lmaganligi, mashg‘ulotlar asosan o‘quv xonalarda amalga oshirilib amaliy mashg‘ulotlar joriy etilmaganligi oqibatida bitiruvchilarning jang maydonidagi hatti harakatlari, shahsiy tarkibni boshqarish, texnikalar bilan ishslash kabi bilim va ko‘nikmalar yetarli emasligi kuzatilgan.

1942- yil may oyida frontning talablaridan kelib chiqib, bilim yurtlaridagi o‘quv dasturlari qayta ishlab chiqilgan hamda ta’lim berishning amaliy usullariga o‘tish orqali komandirlik yo‘nalishi uchun o‘qish muddatini 8 oygacha, muhandislik yo‘nalishi 9 oygacha uzaytirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan, hamda o‘quv rejalar umumqo‘sishin tayyorgarligi, texnik tayyorgarligi bloklari asosida shakllantirilib, jami 17 ta fanlardan 1800 soatlik mashg‘ulotlar o‘tkazilishi belgilab berilgan.

Qizil armiya qo‘mondonining tegishli buyrug‘i hamda Xarkov harbiy okrugining 1941- yil 22- sentabrdagi 72- sonli direktivasi bilan oliy harbiy bilim yurtlari O‘rtal Osiyoga ko‘chirilishi bo‘yicha qaror qabul qilini. Natijada mamlakatimizning Toshkent, Samarqand shaharlariga 11 tadan, Farg‘ona, Chirchiq, Xavos shaharlariga 2 tadan hamda Namangan, Qo‘qon, Jizzax, Buxoro, Qarshi shahrlariga 1 tadan jami 30 tadan ziyod oliy va o‘rtal harbiy bilim yurtlari ko‘chirib kelingan.

Harbiy kadrlarni o‘qitish tizimining retrospektiv tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki,

⁴Ikkinci jahon urushi va O‘zbekiston xalqi; tadqiqotlari. Ilmiy maqolalar to‘plami. 2-jild. T. O‘zbekiston. 2022-y.

214-b

www.tadqiqotlar.uz

14-to‘plam 4-son dekabr 2024

inson bolasi dunyoga kelar ekan, kindik qoni to‘kilgan ona vatanining xududiy yaxlitligi, mustaqilligi, tinchligi farovonligini ta’minlashi shu yurting barcha fuqarolarining burchidir, shunday ekan yuksak salohiyatli mard jasur, zamonaviy fikrlay oladigan, to‘laqonli kompetensiyaga ega ofitser harbiy kadrlarni tayyorlash xizmatlar sohasining oliy maqsadidir.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekistonda harbiy ish tarixidan. “Sharq” nashiriyyot manbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyyati Toshkent - 2012 y. 28-b

2. Хожи Нуруажи. Кадимги уйгурлар ва корахонийлар. - Урумчи, 2001. 327-бет.

3. O‘zbekistonda harbiy ish tarixidan. “Sharq” nashiriyyot manbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyyati Toshkent - 2012 y. 89-b.

Xasanbayev X.X. Mudofaa sohasida harbiy pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish omillari: Pedag. fan. b-cha falsa. d-ri (PhD) diss. ... avtoref. – Chirchiq 2023. - 26 b

4. Джалылов А. Войско и оружие согдийцев накануне и в период борьбы с арабским нашествием// ИООН АН Тадж. ССР, Вып 8. 1956. С. 81-85; Беленицкий А.М. О работе панджикенского отряда ТАЭ в 1959// АРТ, 7, 1961. С. 88-90.

5. А. И. Каменев История подготовки офицерских кадров в СССР (1917 - 1984 гг.). (Новосибирск: НВВПУ, 1991. - 6 с.)

6. Ikkinchı jahon urushi va O‘zbekiston xalqi; tadqiqotlari. Ilmiy maqolalar to‘plami. 2-jild. T. O‘zbekiston. 2022-y. 214-b